

## ESHITISH IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR TALIM OLISH IMKONIYATIDAN MAXRUM EMASLAR

**Ro'ziqulova Zarina Yusuf qizi**

*Defektolog, Logoped*

**Anotatsiya:** *Maqolada eshitishida nuqsoni bolgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ularning psixologik jihatdan o'rganishlarning dolzarbligi, hamda ular bilan talim tarbiyani erta yani maktabgacha talim davridan boshlash kerakligi haqida malumotlat berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *zaif eshituvchi, innovatsion texnologiya, daktil tili, taktil -vibratsion sezgi*

Inklyuzivlik eng yangi maxsus ta'lim strategiyalaridan biridir. Inklyuzivlik - bu alohida ta'limga muhtoj bolani (SEN) maktab hayotiga to'liq jalb qilishni anglatadi. Inklyuzivlikning ma'nosi bolani kunning bir qismi yoki butun kun uchun oddiy sinfga joylashtirish emas, balki shu tarzda sinf makonini tashkil qilishni o'zgartirish, shuningdek o'rganish jarayoni g'ayrioddiy bolani sinf hayotiga to'liq jalb qilish. Ideal holda, inklyuziv sinf SENga ega bo'lgan bir nechta bolalar guruhlarini birlashtirishi kerak, shunda bolalar bir-biri bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu ta'lim tizimining tarafdorlari bu tarzda bolalar haqiqiy hayotga eng yaxshi tayyorgarlik ko'rishlariga ishonishadi. Va skeptiklar o'qituvchilarga SEN bo'lgan bolalar uchun juda ko'p mas'uliyat yuklanishidan qo'rqishadi, o'qituvchilarning o'zlari esa tegishli tayyorgarlik va zarur resurslarga ega emaslar. Va bu alohida ehtiyojli bolalarga oddiy bolalarga qaraganda ko'proq e'tibor berilishiga olib keladi - bu umumiy ta'lim darajasining pasayishini anglatadi.

Inklyuziv ta'lim - bu umumiy ta'limni rivojlantirish jarayoni bo'lib, u barcha bolalarning turli ehtiyojlariga moslashish nuqtai nazaridan hamma uchun ta'lim mavjudligini nazarda tutadi, bu SENga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lim olish imkoniyatini beradi. Inklyuziv ta'lim bolalarga yo'naltirilgan metodologiyani ishlab chiqishga intiladi, bunda barcha bolalar turli xil ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslardir. Inklyuziv ta'lim turli xil ta'lim ehtiyojlarini qondirish uchun yanada moslashuvchan bo'lgan o'qitish va o'rganishga yondashuvni ishlab chiqishga intiladi. Agar inklyuziv ta'lim joriy etayotgan o'zgarishlar natijasida o'qitish va o'qitish yanada samaraliroq bo'lsa, unda barcha bolalar (nafaqat alohida ehtiyojli bolalar) foyda ko'radi.

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yunaltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruxiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik xuquqini kafolatlash;  
jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va saglom bolalarning extièjlarini qondirish, ijtimoiy xaètga erta moslashtirish;

imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarni oilalardan ajramagan xolda yashash xuquqini ruèbga chiqarish;

jamiyatda imkoniyatti cheklangan bolalar va usmirlarga nisbatan dustona va mexr-muxabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiya jarayoniga quyidagi vazifalar qamrab olingan:

– ular uchun munosib shart-sharoitlarni yara-tish;

– jismonan baquvvat, aqlan, ma'naviy-axloqiy komil shaxs sifatida shakllantirish.

Ikkilamchi nuqsonlarini korreksiyalash. Ushbu vazifa o'z ichiga to'rtta maqsadni qamrab oladi:

• bolalarning og'zaki nutqini shakllantirish;

• eshitish qobiliyatini rivojlantirish;

• harakat kamchiliklarini bartaraf etish;

• ijtimoiy hayotga moslashgan, pedagogik-psi-xologik jihatdan maktab ta'limiga tayyorlash.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan insonlar uchun ona tili – imo-ishora tili hisoblanadi. Ammo, maktabgacha yoshdagi bolalarni teng integratsiya qilishni ta'minlash, keyinchalik hayotda o'z o'rnini topishi uchun kichkintoylarning og'zaki nutqini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Bunday bolalarning nutqini rivojlantirish murakkab jarayondir. Og'zaki nutqning shakllanishida eshituv analizatori – nutqini harakatga keltiruvchi analizatorlar ishtirok etadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki nutqini shakllantirish yo'llari muntazam o'rganib borilishi shart. Ya'ni, eshitish qobiliyatini shakllantirish, psixologik, korreksion pedagogik jihatdan tayyorgarlik, lug'at boyligini oshirish lozim.

Og'zaki nutqni shakllantirishda ta'limiy o'yinlar va didaktik materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu orqali bolalarning lug'at boyligi oshadi, og'zaki nutqi shakllanadi, saqlangan eshitish qoldig'i rivojlanadi. Surdopedagog va tarbiyachining to'g'ri va aniq tashkil etilgan hamkorligi guruhda ijobiy rivojlantiruvchi muhit yaratib, ta'lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Yurtimizda innovatsion texnologiyalarga katta e'tibor qaratilmoqda. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasida ham innovatsion ta'lim joriy etish bo'yicha qator ishlarni amalga oshirish, ular uchun turli xil dasturlar yaratish, AKTlar asosida mashg'ulotlar o'tish, zamon talabiga mos mashg'ulot ishlanmalari yaratish kerak.

„Klaster“metodi. Bu metod yordamida mavzuning tayanch tushunchasi qolgan qismlariga o'zaro uzviy aloqadorlikda o'rgatiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bu metod yordamida,tushunchalarni aloqadorlikda tushunadilar va fikrlarini bir tizimga keltira oladilar.Masalan „Mexanik harakat“,„Energiya „Kuch“ „Ishqalanish“ mavzularini o'rganishlarida qo'llash mumkin.Tayanch so'z yoziladi,o'quvchilar uni

tarmoqlarga ajratgan holda, turlarini yozadilar ,farqlaydilar va misollar aytadilar. „Atom molekula“. Bu harakatli o'yin bo'lib o'quvchilar faolligini oshishiga va mavzuni mustahkamlashga yordam beradi.O'quvchilarda qattiq jism,suyuqlik va gazmolekulalarining tuzilishi harakati haqida aniq tasavvurga ega bo'ladilar.Afzallik tomonlaridan yana bir jihati shundaki,sinfdagi barcha o'quvchilar qatnashadilar.Bu o'yindan „Modda tuzilishi,molekula va uning o'lchamlari“, „Elektrzaryadi“,„Magnit qutblari“mavzularini o'rgatishda ham foydalanish mumkin.

Darsning kirish qismida"Aqliyhujum"metodidan foydalanish o'quvchilar diqqati jalb qilishga yordam beradi.Bunda o'quvchilarga mantiqiy savollar beriladi.Tabiat hodisalari,turmush va texnikadagi fizik jarayonlar ilmiy asoslab beriladi.Fan, texnika,ekologiya,iqtisod va boshqa fanlarning o'zaro integratsiyasi tushuntirib beriladi.

Fizik diktant olish orqali esa o'quvchilarni labdan o'qish ko'nikmasi shakllantiriladi. Eshitish imkoniyati cheklangan o'quvchilarga interfaol metodlarni qo'llash bilan birga albatta videodarslarni ham,har bir mavzu yuzasidan shakllantirish kerak.Video darslar darsning yangi mavzu bayoni qismida ko'rsatiladi,qisqa vaqtichida o'quvchilar ko'proq ma'lumotlarga ega bo'ladilar.Bu video darslar surdopedagog tomonidan imo ishora jesti va daktil tili yordamida tayyorlab kelinadi.Har bir mavzuni o'qitishda o'qituvchi AKT vositalari,lug'at so'zlar,ko'rgazmali vositalar va innovatsion metodlardan samarali foydalanishi bu o'qituvchining kreativ fikrlashiga bog'liqdir .

### **XULOSA**

Eshitish imkoniyati cheklangan bolalar imkoniyatlardan xoli emas.Har bir o'quvchiga individual yondashish,yoshxususiyatlari,psixologik -fiziologik xususiyatlarini inobatgaolgan holda ta'lim -tarbiya jarayonini samarali tashkil etish mumkin.Buning uchun albatta zamon talabiga mosravishda ta'lim berish,innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhimdir.Ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi eshitish imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatga moslashuviga ko'maklashish va komil insonni shakllantirishdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13- oktyabr "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim -tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora -tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori.

2. Боскис Р. М. Учителю о детях с нарушениями слуха. - М.: Просвещение, 1987.

3. Венгер А. А. Обучение глухих дошкольников изобразительной деятельности. - М.: Просвещение, 1972.

4. Вопросы воспитания и обучения аномальных детей дошкольного возраста: Сб. науч. тр./Под ред. Л. П. Носковой. - М.: Изд-во АПН СССР, 1980.

5. A. M. Karimov, Sh. O. Toshpulatova. Astronomiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish